



## IKKINCHI JAHON URUSHIDA QATNASHGAN XO'JABULG'ONLIK LAR

Mustafaqulov Otobek Panji o'g'li

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti3-bosqich talabasi*

**Annottatsiya:** Bu maqolada ikkinchi jahon urushida qatnashgan Xo'jabulg'onlik vatan qahramonlari haqida gap boradi. Ularni jang olib borgan joylarida bo'lgan voqealar va ularni keyingi taqdirlari nima kechgani to'g'risida bo'ladi. Ularning nomi tarixda abadiy qoladi.

**Kalit so'zlar:** Xo'jabulg'on, ikkinchi jahon urushi, Gitler, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi, Zarbdor kalxozi, Butunittoq qishloq xo'jaligiga, Boysun, Xalq Komissarlari kengashi.

### Kirishi

Sog'inch. 1943

Og'ir savdolarga to'ladir olam,  
Tiyra samolarda sinadir nolam.  
Uzra tuproqlarda shahid yotsa-da,  
Hamon yuragimda yuradir bolam.

1941-1945-yillar SSSR tarixida suronli, ammo xalq qahramonligi sahifalari bilan bitilgan.

O'sha davrdagi ko'p millatli xalqlarning Vataniga, o'z burchiga cheksiz sadoqatligi, mardligi va matonatini unutib bo'lmaydi. 1941-yil 22-iyun – biz uchun urushning dastlabki kunlari hisoblangan damlardanoq o'z baynanmilalchilik burchiga sodiq qolgan tog'li Boysun elining o'n mingga yaqin jasur yigitlari g'alaba onlarini yaqinlashtirishga munosib hissalarini qo'shdi. Bular orasida Xo'jabulg'on qishlog'ining mard va botir yigitlari ham jang maydonlarida qatnashdi.

Xo'jabulg'on qishlog'idan Ikkinci jahon urushiga 100 dan oshiq yigitlar safarbar qilingan bo'lsa, shularda 37afari turli jarohatlar bilan Vatanga qaytgan. Qolganlari halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan.

Urush tugagandan keyin urushdan omon qaytgan Vatan qahramonlari ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik va madaniy hayotning turli jabhalarida mehnat qilganlar. O'zlarining qimmatli va boy hayot tajribalarini, bilim va o'gitlarini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan. Ularning tengsiz jasoratlari va matonatlari yod etishlari buyuk insoniylik burchlaridandir, deb bilamiz. Hozir ularning deyarli barchasi hayotdan ko'z yumgan.

### Asosiy qism

Urush boshlangan kuni Xalq Komissarlari kengashi raisi V. M. Molotovning radio orqali quyidagilarni aytgan:

Hukumat Ittifoqining erkak va xotin-qiz grajdamlarni... o'z saflaringgizni mahkam jipslashtirishga chaqiradi. Bizning ishimiz – haqqoniyl ish. Dushman mayaqlab tashlanadi.Biz g'alaba qilamiz!..



Ertasiga firqo'mning majlislar zalida ko'p kishilik miting bo'ldi. Unda tuman firqa qo'mitasining birinchi kotibi Alikul Boybo'tayev ma'ruza qildi. U o'z ma'ruzasida harbiy holat e'lon qilinganligi xususidagi farmonni o'qib eshittirdi:

O'rtoqlar, birodarlar! SSSR Oliy Soveti Prezidiumi 1941-yil 22-iyunda Gitler Germaniyasining Vatanimizga bostirib kirib, qonli urush boshlangani munosabati bilan farmon e'lon qiladi. Farmondagi so'zlar har birimizning ongimiz va qalbimizga, orqali Boysunning barcha mehnatkashlariga, jami aholisiga etib bormog'i joizdir.

Miting qatnashchilari hukumat axborotini hayajon bilan tinglashib, sovet xalqlari tinchligini buzgan Gitler hukumatiga, uning qonxo'r qo'shinlariga nisbatan qattiq nafrat bildirdilar.

Ayni zamonda ular Vatanni qo'riqlashga har soniya tayyor ekanliklarini izhor etishdi.

1941-yil iyun oqshomlarining birida Hurdal momo kichik o'g'li Xolmuhammadning to'yini o'tkazgandi. Ertasiga tong sahar O'zbekiston radiosida muthish xabar e'lon qilindi. Bu fashistlar sovet ittifoqiga bostirib kirishi edi. Zarbdor jamoa xo'jaligi raisi Normuhammad Nomozov kolxoz idorasiga ertalab borsa, qishloq kengashi raisi J. Rahimov bizga rayondan topshiriq bo'ldi zudlik bilan armiyaga chaqirish to'g'risida dedi. O'sha kuni qishloq kengashi idorasida jamoa xo'jaligi a'zolari ishtirok etib urushga ro'yxatdan o'tdi. Shunda kolxoz raisining ukasi Xolmuhammad Nomozovga ham chaqiruv bor edi. U akasi oldiga borib chaqiruvnomani ko'rsatdi. Shunda akasi Normuhammad Nomozov uka seni kechagina to'ying bo'ldi. Dinimizda kelin-kuyov chillasi chiqmasdan safarga chiqishi mumkin emasligini aytib joyingdan men boraman dedi. N. Nomozov Zarbdor kalxozi raisi bo'lgani uchun rayon partiya komiteti tomonidan urushga yuborilishi taqiqlangan edi. Bundan tashqari N. Nomozovning 3 ta farzandi, xotini va qari onasi bo'la turib ukasining o'rnidan urushga jo'nab ketdi.

U 1937-yil Zarbdor kolxoziga rais bo'lib saylangandi. Raislik faoliyatida rayon kolxozlari ichida yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi. 1941-yil Moskvada o'tkazilgan Butunitifoq qishloq xo'jaligiga (VDNX) taklif qilingan edi. Taklif qilingan yo'llanma 1256-nomerda edi.

N. Nomozov yuborilgan eshelon Ukrainianing shimoliy tarafidagi Ukrainka shaharchasidagi diviziyaga borib qo'shildi. N. Nomozov xizmat davrida Kiyev bir qismi fashistlar qo'lida edi. Dnepr daryosining o'ng qirg'og'ida fashistlarning katta bazasi bor edi. Shu joydan ma'lumot olib kelish kerak edi. Shunda shu chastning qo'mondoni N. Nomozovni chaqirib men senga ishonaman, barcha imtihonlardan o'tding shuni uchun sen ma'lumot olish uchun nemislar bazasiga borishing kerak deydi. Unga sherik qilib Latviyalik Bakavina va rus yigit Antonni jo'natadi. Ular kechasi chamasi soat 2-3 bo'lganda qattiq qo'riqlanayotgan nemislar bazasiga yaqinlashadi. Baza oldida ikki soqchi qimirlamay turishardi. Chunki ular yarim uyquda edi. Shunda N. Nomozov sheriklariga ikki soqchini ikki soqchini hushdan ketkazib olib ketamiz deydi. Soqchilarning birini tutish uchun Anton va Bakavina va boshqa soqchiga Nomozovning o'zi boradi. Nomozov o'sha vaqtarda eng baquvvat polvonlardan biri edi, ammo nemis soqchisi undan deyarli qirq santimetr uzun edi. Ikkovi kurashadi Nomozov mag'lubiyatga uchray boshlaganda noiloj

jon-jahdi bilan nemis soqchisining burnidan tishlab oladi va Anton va Bakavina zo'rg'a Nomozovni nemisdan ajratib oladi.

Nomozov urushga ketayotgan vaqtida onasi bir nonni tishlatib tuguncha bergen edi. Unda jiyda bor edi. Tugunchadan uchta jiyda tushib qoladi. Hurdal momo irim bilan jiylalarni sallasiga solib qo'ygandi. N. Nomozov urushdan qaytadi. Shunda onasi jiylalarni olib "iymoni butunning risqi butun" deb o'g'lini kutib oladi.

**Ikkinci jahon urushida bedarak yo'qolgan Xo'jabulg'onliklar**

Abilov Xurram (1924-1943), Baratov J (1902-1943), Azimov Abdishukur (1910-1942), Abdurahmonov Xidir (1918-1944), Allayorov Azamat (1918-1943), Abdullayev Nurmamat (1921-1944), Abdujalilov Mengli (1921-1944), Abdurahmonov G'affor (1919-1943), Allayev Davlat (1924-1944 dekabr), Bekmurodov Ergash (1921-1944), Bozorov Ro'zi (1918-1944), Diyorov Eshqul (1924-1943 iyun), Doniyorov Doni (1919-1944), Davlatov Xurram (1914-1944), Jonqobilov Jo'raqul (1916-1943), Yo'ldoshev Shotora (1918-1944), Yo'ldoshev Berdi (1921-1944), Yo'ldoshev Safar (1918 -1944), Mamataliyev Turob (1917-1943), Mavlonovali (1921-1942), Mengliyev To'ra (1925-1943) vatan uchun jang qilib bedarak yo'qolgan botir jangchilarimiz hamon qalbimizda qoladi.

**Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan Xo'jabulg'onliklar**

Boboqulov Xudoyberdi (1919-1944 Brest viloyati Perujeniskiy shahri), Odilov Umar (1920-1942), Rahmonov Niyoz (1911-1943), Suyunov Bo'ri (1918-1945), Suyunov Parda (1920-1943), Yangiboyev Mamatraim (1911-1943-yil Lelingrad viloyati 5- posyolka Do'stlik qabristoniga dafn etilgan), Shodiqulov Mamatali (1917-1945-yil Budapesht), Xoliqov Xudoyberdi (1922-1943-yil Vitovik viloyati Kursk qishlog'i), Xoliqov Sayqom (1923-1942-yil Mobdina shahri Lipova ko'chasi), Fozilov Jo'raqul (1922-1945-yil Bryansk viloyati Klins shahri, Umranov Saqot (1913-1942-yil Orjonikidze viloyati Beslan tumani), Umarqulov Xurram (1907-1944-yil Zaporoj viloyati Dukmaro qishlog'i), Tursunov Hasan (1924-1943-yil Lelingrad viloyati Abraik tumani), Turayev Eshqobil (1916-1944), Pardayev Umrzoq (1918-1944-yil Chexoslavakiya), Saidov Saydulla (1921-1944-yil Zasochesk viloyati Karolesk tumani), Mahmudov Parda (1924-1944 Ivanova viloyati Shud shahri), Mamatov Xoliqul (1907-1943), Mansurov Bolli (1904-1944), Karimov Egam (1911-1944-yil Lelingrad viloyati Pskov tumani), Salimov Shodmon (1914-1942-yil Sentabr), Tangriyev Juma (1921-1944), Tursunov Jabbor (1916-1944), Tursunov Normo'min (1917-1944), Tambayev Amir (1919-1945), Umirov Bo'ri (1917-1945), Xoldorov Yo'ldosh (1912-1941), Xidirov Shotora (1919-1943), Xidirov Xoliyor (1922-1943), Xushvaqtov Eshmat (1902 -1944), Sherdonayev Bozor (1919 -1943), Sherdonayev Juma (1921-1942) vatan uchun jang maydonlarida mardlarcha halok bo'lgan Xo'jabulg'onning alp yigitlari bo'lgan.

Ikkinci jahon urushida mening bobom G'aniyev Mustafoqul bobo ham qatnashgan. Bobom 1924-yilda tug'ilgan. Bolaligi juda katta qiyinchilikda o'tgan. 1942-yil bahorida urushga safarbar qilinganlar qatorida bo'lgan. Bobom urushdan qaytgandan keyin yaqinlariga va oilasiga urushni shunday xotirlagan: "Dastlab ikki oy urushga tayyorlandik, keyin Ukrainianing Kiyev yaqinidagi qishloqlarni ozod qilish uchun urushga kirdik. Har kuni ertalab ikki tomondan raketa otilib urush boshlanganini bildirar edi. Peshin vaqtiga kelib yana xuddi shu holatda urush to'xtatilar edi. Ammo razvedka ishlari to'xtamasdi.



Keyin halok bo'lgan va yaralangan jangchilar yig'ib olinar edi. Oziq-ovqat sifatida non, cho'chqa go'shti va aroq berilar edi. Urushda asosan beshotar qurol ishlatardim".

Bobom urushga jo'nagan vaqtida yaqin insonlaridan biri Alisaidov Ro'zi ham bo'lgan. Ammo Alisaidov Ro'zi yo'lida otib tashlangan. 1942-yilning sentabrida bobomga yaqin joyda snaryad portlashi natijasida bobom og'ir yaralangan. Natijada gospitalda ikki oy yotgan. Keyin 1942-yilning noyabrida uyiga qaytib kelgan afsuski onasi Turdixol momo vafot etgan edi. Urushdan qaytgandan keyin bir muddat kolxozda o'roq o'rimchilarga tabelchi bo'lib ishlagan. 1953-yil Buxoroga borib davlat buyurtmasiga asosan "hisobchilik kursi"ga olti oy o'qib keladi. Kolxozda 1984-yil nafaqaga chiqgunigacha hisobchi bo'lib ishlagan. Keyin 2005-yil uzoq davom etgan og'ir kasallikdan so'ng vafot etgan.

Sovet xalqining nemis-fashistlariga qarshi olib borgan Ulug' Vatan urushini 1945-yil 8-may kuni g'olibona tamomlaganligi sababli SSSR Oliy soveti Prezgiumining farmoniga binoan 9-may umumxalq tantanasi kuni – G'alaba bayrami deb e'lon qilindi.

#### Xulosa

Ikkinchi jahon urushida deyarli har bir oilada hech bo'limganda bir kishi urushga safarbar qilingan. Natijada oilaning boquvchisi yo'q bo'lib qolishi ayollar va bolalarning kalxoz va sovxozlarda og'ir mehnat qilishiga to'g'ri kelgan. Ularning mashaqqatli mehnatlari tufayli urushda g'alaba qilish muhim omillardan biri bo'lgan. Boysundan o'n mingga yaqin kishi urushga safarbar qilingan bo'lsa, shundan yuzdan oshig'i Xo'jabulg'on qishlog'i hissasiga to'g'ri keladi. Bu alp yigitlar vatan oldidagi burchi va or-nomusi uchun mardonavor janglarda qatnashdi. Ularning nomlari va jasoratlari doimo qalbimizda qoladi. Kelajak yoshlar ota-bobolarizning vatan oldida xizmatlaridan faxrlanib, g'ururlanib vatan ravnaqi uchun doimo xizmat qilamiz!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tohir Usmon. Suronli yillar qissasi. Toshkent. 1995
2. Qobil Rashidov. Xotira. Toshkent. 1994
3. Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov. Boysun tarixi. 2011
4. Boysun tuman arxivi.1991-2000
5. Berdiyev. X. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Toshkent. 1991
6. Tursunov. S. Surxondaryo tarixi Toshkent. 2004
7. "Boysun ovozi" gazetasi materiallari. 1992-2005.